

**SIZNING BEMOR SIFATIDAGI HUQUQ VA MAJBURATLARINGIZ**

TriHealth korporatsiyasiga xush kelibsiz va bizni sog'liqni saqlash provayderi sifatida tanlaganingiz uchun minnatdormiz. Tibbiy yordam ko'rsatuvchi provayderlaringiz bilan suhbatlashish va davolanishni rejalashtirishda ishtirok etish orqali siz qabul qilayotgan davolanish sizning xohishingiz va qadriyatlaringizga mos kelishiga yordam bera olasiz. Ushbu huquq va majburiyatlar chaqaloqlar, bolalar, o'smirlar va katta yoshdagi bemorlarga, shuningdek ularning ota-onalariga, qonuniy vakillariga yoki vasiylariga nisbatan qo'llaniladi.

**BEMOR SIFATIDA QUYIDAGI HUQUQLARGA EGASIZ:**

1. Davolanish va parvarishlashdan oldin huquq va majburiyatlaringiz haqida ma'lumot olish.
2. Bemor bilan aloqalar bo'limi xodimlaridan huquq va majburiyatlaringizni tushunishingizga yordam berishlarini so'rash.
3. Hurmat va ehtirom bilan muomala qilish.
4. Irqi, etnik kelib chiqishi, madaniyati, tili, ijtimoiy-iqtisodiy holati, dini, jinsi, yoshi, milliy kelib chiqishi, jinsiy orientatsiyasi, nogironligi yoki to'lov usuliga asoslangan kamsitishlarning har qanday shakllaridan xoli bo'lish.
5. TriHealth tashkilotiga qabul qilinganligingiz to'g'risida oila a'zolaringiz yoki vakilingiz va/yoki birlamchi tibbiy yordam shifokoringiz zudlik bilan xabardor qilinishini ta'minlash.
6. Siz belgilab bergan tashrif buyuruvchilar, jumladan, turmush o'rtog'ingiz, birga yashovchi sherigingiz (yoki bir jinsli sherigingiz), oila a'zoingiz yoki do'stingiz bo'lishi mumkin. Siz istalgan vaqtda tashrif buyuruvchilar bilan ko'rishishga o'z xohishingizga asosan rozilik berishingiz mumkin.
7. Siz tanlagan yordamchi shaxsning oldingizda bo'lishi, agar bu shaxsning mavjudligi boshqalarning huquqlarini, xavfsizligini buzmasa yoki tibbiy yordam ko'rsatishga xalaqit qilmasa.
8. Sizni davolashda ishtirok etayotgan shifokorlar, hamshiralar va talabalarning ismlari va roli hamda ularning sizni parvarishlash va davolash ishidagi rolini bilish.
9. Davolash va xizmatlar ko'rsatishda maxfiylik va qadr-qimmatni saqlash uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish.
10. Yozma va og'zaki muloqotlar, tashriflar, oila va guruhlar bilan uchrashuvlar va shaxsiy parvarishlashda shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligini saqlash.<sup>2</sup>
11. O'zingizga tushunarli tilda ma'lumot olish. Bunga tilni tarjima qilishda yordam (bepul) yoki eshitish nuqsonlari uchun yordam kiradi.
12. Kasalxonadagi davolanish bo'yicha barcha ma'lumotlar va xabarlar maxfiy saqlanishini talab qilish.
13. Shifokor va hamshiralaringiz bilan og'riqni yengib o'tish bo'yicha aniq bir maqsadni belgilab olish.
14. Shifokoringizdan kasalligingiz, davolanishingiz, dunyoqarashingiz va tavsiya etilgan davolanishga potentsial muqobillar haqida ma'lumot olish.
15. Shifokoringiz rejalashtirayotgan tashrix yoki muolajaga rozi bo'lmasdan oldin u haqida ma'lumot olish, shu jumladan muolaja yoki tashrixga rozi bo'lmasangiz nima bo'lishi haqida so'rash.
16. Tadqiqot yoki tajribaviy muolajalarni o'z ichiga olgan davolanishga rozilik bildirish yoki rad etish. Ushbu muolajalarni rad etishingiz yoki to'xtatishingiz boshqa tibbiy yordamdan foydalanishingizga ta'sir qilmaydi.
17. Boshqa shifokordan ikkinchi fikrni so'rash va to'lovni amalga oshirish.
18. Shifokoringiz bilan birgalikga odamni tirik ushlab turadigan qurilmalardan foydalanish to'g'risida qaror qabul qilish.
19. Davolanish haqida oldindan ko'rsatma berish (sog'liqni saqlash bo'yicha ishonchnoma) va imkoningiz bo'lmaganda siz uchun qaror qabul qilishda kimningdir ismini belgilash.
20. A'zolaringiz va to'qimalaringizni donorlik qilishni istasangiz, ularni berish haqida ma'lumot so'rash.
21. Etika qo'mitasidan og'ir davolanishni tanlashda yordam so'rash.

<sup>2</sup> Bu TriHealth korporatsiyasidan har bir bemor uchun alohida xona ajratishni talab qilmaydi. Tibbiy ma'lumotlarni berish TriHealth Maxfiylik/HIPAA siyosatlariga muvofiq amalga oshiriladi



22. Tashrif buyuruvchilarni qabul qiling, pochta va telefon qo'ng'iroqlarini amalga oshiring, agar ularni cheklash sizning parvarishigingiz uchun zarur bo'lmasa. Jamoa sizni qarorga kiritadi va ma'lumot o'rnida buni tushuntiradi.
23. TriHealth tashkiloti buning uddasidan chiqsa, madaniy yoki diniy ehtiyojlaringizni qo'llab-quvvatlash.
24. Tibbiy zarurat tug'ilganda, boshqa TriHealth muassasasiga yoki parvarishlash joyiga ko'chib o'tish.
25. Dalillar, tadqiqotlar va tibbiy standartlarga asoslangan yordam kutish.
26. Xizmatning uzluksizligini kutish va TriHealth shifoxonasini tark etganingizdan keyingi yordamni rejalashtirishda yordam olish.
27. Sog'lig'ingiz haqidagi ma'lumotlarni ko'rib chiqing yoki o'zgartirilishini so'rash.
28. Davolanishingiz uchun shart bo'lmagan filmlar, yozuvlar yoki fotosuratlarida qatnashishga rozilik bering yoki rad etish.
29. TriHealth tashkiloti va joylarida bo'lganingizda oqilona xavfsizlik choralarini talab qilish.
30. Tibbiy zarur bo'lmagan cheklash yoki yolg'izlikdan xoli bo'lish.
31. Vasiylik, bolalar yoki kattalar himoyasi xizmatlari kabi himoya xizmatlaridan foydalanish.
32. Guruh a'zolariga va/yoki bemor bilan aloqalar bo'limiga davolanishingiz yoki xizmat ko'rsatilishi haqida qanday shikoyat qilish tartibi haqida bilib olish.
33. TriHealth tashkiloti autopsiyani o'tkazish uchun ruxsatingizni qanday olishi va yozib olishini belgilashi haqida bilib olish.
34. Ogayo sog'liqni saqlash departamenti, Qo'shma komissiya, CMS yoki HFAP (faqat MHMH) ga qanday shikoyat qilish haqida bilib olish.
35. TriHealth va sizga havola qilingan xizmatlar o'rtasidagi munosabatlar haqida ma'lumot olish.
36. Hisobingiz va moliyaviy yordam haqida ma'lumot olish.
37. Agar Medicare sug'urtasini olsangiz, Medicare imtiyozlarini olish bo'yicha huquqlaringiz haqida xabardor bo'lish.
38. O'rtacha vaqt oraliq'ida sog'ligingiz haqidagi ma'lumotlar nusxasini olish yoki o'zgartirishni so'rash imkoniyatiga ega bo'lish.
39. Bemor bilan aloqalar bo'limi xodimlariga TriHealth muassasasida bo'lganingizda sodir bo'lgan har qanday suiste'mollik, e'tiborsizlik, noto'g'ri muomala yoki shaxsiy mulkingiz yo'qolishi haqida aytish.

#### **BEMOR SIFATIDA SIZ QUYIDAGILARGA MAJBURSIZ:**

1. Boshqa bemorlar va TriHealth xodimlarining huquqlarini hisobga oling; TriHealth korporatsiyasining tashrif buyuruvchilar, telefondan foydalanish, chekmaslik qoidalariga rioya qilish va TriHealth tashkiloti va boshqalarning shaxsiy mulkiga hurmat bilan munosabatda bo'lish, joriy siyosat qoidalariga rioya qilish.
2. O'zingizdagi hozirgi alomatlar, o'tmishdagi kasalliklar, kasalxonalarga yotish, dori-darmonlar, kasallik tarixi va o'z sog'ligingizga tegishli barcha boshqa masalalar haqida aniq va to'liq ma'lumot berish. Bunga holatingizdagi har qanday kutilmagan o'zgarishlar haqida xabar berish ham kiradi.
3. Shifokoringiz yoki hamshirangizdan og'riqni boshqarish borasida nima kutishingiz mumkinligini hamda shifokor va hamshirangizga og'rig'ingizni boshqarishda yordam berishlarini so'rash.
4. Tashxislash va davolashda shifokorlar, hamshiralar va boshqa xodimlar bilan hamkorlik qilish.
5. Ko'rsatilayotgan xizmat yoki davolash haqidagi ma'lumotlarni tushunmasangiz, savollar berish.
6. Agar davolanishdan bosh tortsangiz yoki shifokor ko'rsatmalariga rioya qilmasangiz, o'zingizning harakatlaringiz uchun o'zingiz javobgar bo'lishingiz.
7. Agar shifokor ko'rsatmalarini bajara olmayman deb o'ylasangiz, bu haqda shifokor yoki hamshiraga aytishingiz.
8. TriHealth korporatsiyasiga Hayotiy Irodangiz nusxasini (Tirik vasiyatnoma, sog'liqni saqlash bo'yicha ishonchnoma) yoki agar bo'lsa, DNR Comfort Care yoki DNR Comfort Care Arrest ma'lumotlarini berish.
9. TriHealth korporatsiyasiga sug'urta va/yoki hisobingizni to'lash uchun zarur bo'lgan ma'lumotni berish.

Ushbu huquq va majburiyatlarni 513-862-4620 raqamiga qo'ng'iroq qilib tinglashingiz mumkin. Korporativ siyosatning to'liq nusxasi yoki ushbu eslatmaning nusxasi Brayl va ispan tillarida Bethesda North TriHealth va Good Samaritan TriHealth-dagi Bemorlar bilan aloqalar bo'limida mavjud.

Iltilmos, bemorni parvarish qilish va bemor xavfsizligiga oid takliflaringiz, tashvishlaringiz yoki shikoyatlaringizni sog'liqni saqlash guruhiga yetkazing. Bu sizga mukammal xizmat ko'rsatishimizga yordam beradi. Siz sog'liqni saqlash guruhining a'zosisiz va biz sizning maxsus so'rovlaringiz va ehtiyojlaringizni qondirishga intilamiz. Bemor bilan aloqalar bo'limi TriHealth bosh ofisi va TriHealth muassasalarida bemorlarni parvarish qilish va bemor xavfsizligiga oid shikoyatlaringiz yoki xavotirlaringizga javob berish uchun rahbariyat bilan ishlaydi.

Shikoyat haqida xabar berishni istasangiz, quyidagi raqamlar orqali Bemor bilan aloqalar bo'limiga murojaat qilishingiz mumkin:

<b>Bethesda North Region 513.865.1115</b>	<b>Good Samaritan Region 513.862.2582</b>
Bethesda North Hospital Bethesda Butler Hospital Arrow Springs dagi Bethesda Medical Center va barcha boshqa Bethesda North Hospital ichidagi yoki tashqarisidagi joylar McCullough-Hyde Memorial Hospital (MHMH)	Good Samaritan Hospital Good Samaritan Hospital - Evendale TriHealth Surgery Center – Anderson Cincinnati Hand Surgery Center Good Samaritan Medical Center - Western Ridge Boshqa barcha Good Samaritan kampus ichidagi yoki tashqarisidagi joylar

Quyidagi ma'lumotlardan foydalanib, Ogayo shtati Sog'liqni saqlash departamenti, Qo'shma komissiya yoki Medicare va Medicaid Services markazi (CMS) yoki Sog'liqni saqlash muassasalarini akkreditatsiya qilish dasturi (HFAP-ACHC) bilan bog'lanishingiz mumkin:

<b>Tashkilot/Agentlik</b>	<b>Telefon raqami</b>	<b>Manzili</b>	<b>Veb-sayt</b>
Ogayo shtati Sog'liqni saqlash boshqarmasi	1-800-342-0553, TDD 1-614-752-6490	246 North High St. Columbus, Ohio 43215	<a href="https://odh.ohio.gov">https://odh.ohio.gov</a>
Qo'shma komissiya	1-800-994-6610	Mavjud emas	<a href="http://www.jointcommission.org">www.jointcommission.org</a>
Medicare va Medicaid xizmatlari markazi (CMS)	1-800-633-4227 TTY 1-877-486-2048	Mavjud emas	<a href="http://www.medicare.gov">www.medicare.gov</a>
Sog'liqni saqlash muassasalarini akkreditatsiya qilish dasturi (HFAP) <b>Faqat MHMH uchun</b>	1.855.937.2242	Mavjud emas	<a href="http://www.achc.org/complaint-policy-process.html">www.achc.org/complaint-policy-process.html</a>

Medicare benefitsiarlari uchun Medicare Benefisiar Ombudsmanining veb-sayti:  
<https://medicare.gov/claims-and-appeals/medicare-rights/get-help/ombudsman.html>